



Food and Agriculture
Organization of the
United Nations



ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ: МИЛЛИЙ ВА ГЛОБАЛ ОМИЛЛАР

II-ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ ДАСТУРИ

**2020 йил 16-17 октябрь
Самарқанд, Ўзбекистон**

“Food Security: National and Global Drivers”

**International Scientific and Theoretical
Conference**

16-17 October 2020

Samarkand, Uzbekistan

Самарқанд - 2020

продовольственная независимость страны и гарантируется постоянный физический и экономический доступ людей к достаточному количеству безопасной и качественной пищи, позволяющей удовлетворять их пищевые потребности и предпочтения для ведения здорового и активного образа жизни. Продовольственный кризис - ситуация, в которой обеспечение населения основными продуктами питания в соответствии с оптимальными нормами потребления продуктов питания находится под угрозой на всей или значительной части территории страны и данная угроза может быть устранена только с применением государственного регулирования, а при необходимости, с участием международных организаций. Продовольственная независимость - условие обеспечения продовольственной безопасности страны, при котором в случае прекращения поставок продуктов питания из-за рубежа не возникает продовольственный кризис.

ВОЗ и ФАО продолжают внимательно следить за ситуацией на предмет любых изменений, которые могут повлиять на эти временные рекомендации. При возникновении изменений информация подлежит обновлению. В противном случае срок действия временных рекомендаций истекает через 2 года после даты публикации.

Источники:

1. О прогнозах динамики мировой экономики в условиях пандемии COVID-19 и возможных стабилизационных мерах:
<http://www.eurasiancommission.org/ru/covid-19/Pages/materials.aspx>
2. Временные рекомендации по обеспечению безопасности пищевых продуктов в период пандемии COVID-19- WHO. 2020. Modes of transmission of virus causing COVID-19: implications for IPC precaution recommendations, Scientific brief. <https://www.who.int/news-room/commentaries/detail/modes-of-transmission-of-virus-causing-covid-19-implications-for-ipc-precaution-recommendations>
3. Проект Закона Республики Узбекистан «О продовольственной безопасности», апрель 2020г.

OQDARYO TUMANIDA OZIQ-OVQAT SANOATI RIVOJLANISHIDA CHORVACHILIKNING TUTGAN O'RNI

O.L.Muxamedov., D.D.Juraxujayev
Jizzax davlat pedagogika institute

Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi va uni xom ashyo bilan ta'minlashda chorvachilik mahsulotlari ham muhim sanaladi. Chorvachilik qishloq xo'jaligining ikkinchi asosiy tarmog'i hisoblanib, u dehqonchilik bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Bu tarmoqning rivojlanishi eng avvalo, ob-havo va iqlim sharoitlariga bog'liq holda o'zgarib boradi. Ya'ni, ob-havo qulay kelgan yillarda yuqori, noqulay kelganda esa bir muncha past ko'rsatkichlarda rivojlanadi [1]. Jumladan, tumanda

sug'orma dehqonchilikning hududiy tashkil etilganligi chorvachilik tarmoqlarining intensiv xo'jalik asosida rivojlanishiga asos bo'ladi.

Chorvachilikning asosiy tarmog'i bo'lgan yirik shoxli qoramolchilik tumanda o'ziga xos ulushga ega bo'lib, u hududning tabiiy sharoiti va xo'jalik ixtisoslashuvining o'zgarib borishiga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra 2013-yilda tumanda 65093 bosh qoramol boqilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 76235 taga yetgan. Bu davr mobaynida yirik shoxli qoramollar soni 11142 taga ko'paygan yoki 119,9 foizga o'sgan. Mazkur holatni yilma-yil tahlil qiladigan bo'lsak ma'lum darajada tebranishni ko'rishimiz mumkin. Yirik shoxli qoramollar soni 2018-yil eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,7 foizga (5419 bosh) o'sgan. Qishloq xo'jaligida chorvachilikning hamda sug'orma dehqonchilikning intensiv rivojlanishi mazkur yilda qoramollar sonining ortishiga sabab bo'lgan. 2014-yil hamda 2017-yillarda boqilgan qoramollar soni keltirilgan yillarga mos ravishda 65093 va 70816 boshni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqoridagilarga mos ravishda 100 va 99,5 foizga o'sgan. O'z-o'zidan ko'rinadiki o'rganilayotgan yillarda yirik shoxli qoramollar soni ushbu yillarda sezilarli darajada pasaygan. Mazkur holatning sabablarini shu yillarda qishloq xo'jaligi yerlariga poliz ekinlarini ekish salmog'ining ortishi va buning natijasida yem-xashak ekinlarini yetishtirish bir muncha pasayganligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda qo'y va echkilarning umumiy soni so'nggi ma'lumotlarga ko'ra 2281,3 ming boshni tashkil qilib, bu ko'rsatkich hududlar bo'yicha turlicha ko'rinishga ega bo'ldi. Tuman qo'y va echkilar salmog'iga ko'ra viloyatda juda past ko'rsatkichga ega bo'lib 2018-yil viloyatda boqiladigan jami qo'y va echkilarning 1,4 foizi (32881 bosh) mazkur hududda mujassamlashdi. Tumanda qo'y va echkilarni boqish uchun yaylovlar maydonining birmuncha kam ekanligi qolaversa hududning ko'proq dehqonchilikka ixtisoslashganligi tumanning bu boradagi ulushini pasayishiga olib kelgan. 2013-yil tumanda boqilgan qo'y va echkilar soni 28312 boshni tashkil etgan bo'lsa 2018-yilda bu ko'rsatkich 32881 boshga yetgan va bu davr mobaynida o'sish 125,2 foizdan iborat bo'ldi (4569 ta). Ushbu holatni yilma-yil tahlil qiladigan bo'lsak o'rganilayotgan yillarda ma'lum darajada tafovutlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, eng yuqori o'sish 2013-yilda kuzatilgan bo'lib, mazkur yilda tumandagi qo'y va echkilarning umumiy soni 28312 boshni tashkil etgan va o'tgan yilga nisbatan 107,8 foizga o'sgan. Eng past ko'rsatkich esa 2015-yilda kuzatilgan bo'lib bu yilda o'sish ko'rsatkichi 101,3 foizni tashkil etdi. Yer resurslaridan intensiv foydalanishning kengayishi mazkur tarmoqning ulushini pasayishiga sabab bo'lgan.

Tuman chorvachiligida otlar ulushi ham o'ziga xos ko'rsatkichga ega bo'lib, 2013-yilda ularning soni 1558 boshni tashkil qilgan, so'nggi 2018-yilda esa bu ko'rsatkich 1772 taga yetgan. Bu davr mobaynida tumanda otlarning ulushi 117,7 foizga yoki 214 boshga ko'paygan. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki o'rganilayotgan yillar mobaynida otlar salmog'ining ortib borishi so'nggi yillarda sezilarli darajada 109,3 foizga o'sgan. Mazkur holatning sabablarini aholining milliy o'yinlarimiz "Ko'pkari" ga bo'lgan qiziqishning ortishi, qolaversa tumanda ot sporti bilan shug'ullanuvchi yoshlarning ko'payib borayotganligi bilan ham izohlash

mumkin. Oziq-ovqat sanoatida, shuningdek ot go'shtidan asosan tansiq taomlar tayyorlashda xom ashyo sifatida keng foydalaniladi. Masalan, qazi asosida ko'plab milliy taomlar (norin) tayyorlanadi. Bunda tuman bevosita poytaxt shaharni mazkur mahsulot bilan ta'minlashda ishtirok etadi. Ayniqsa shaharning milliy-etnik xususiyatlari va gastronomik jihati ot go'shti va undan tayyorlanadigan mahsulotlarni boshqa hududlarga nisbatan ko'proq iste'mol qilishi bilan ajralib turadi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlashda parrandachilikning ahamiyati ham katta. Tumanda 2018-yil 352042 bosh parranda boqilgan bo'lib, 2013-yilga nisbatan 97391 boshga ko'paygan yoki 152,6 foizga o'sgan. Mazkur holatning o'sish dinamikasini yillar davomida tahlil qiladigan bo'lsak ma'lum darajada tafovutlar borligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa bu tafovut 2017-yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan ishni statistik ma'lumotlar tahlidan ko'rish mumkin. Mazkur yilda tumanda boqiladigan parrandalar soni 345292 boshni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 113,7 foizga o'sishi qayd etilgan. Bu o'sish aholining istemol savatchasida parrandachilik mahsulotlarining ko'payishi hamda xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan rivojlantirilishi (kam foizli kridetlarning berilishi) bilan izohlanadi. Bunday o'sish ba'zi yillarda bir muncha pasayganligini ko'rish mumkin. Jumladan 2016-yil tumanda 303541 bosh, 2018-yilda esa 352042 bosh parranda boqilgan bo'lib, yuqoridagilarga mos ravishda o'sish 102,1 va 101,9 foizga o'sgan. Ko'rsatkichlarning bunday tebranishiga ob-havo va iqlim xususiyatlarining o'zgarib turishi shuningdek aholi istemolining o'zgarib borishi ham sabab bo'ladi. Parrandachilik mahsulotlari go'shtni qayta ishlash sanoatining, shuningdek qandolatchilikning ham rivojlanishida asosiy xom ashyo sifatida o'rni beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda Oqdaryo tumanida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda yetarli darajada imkoniyatlar mavjud. Mazkur imkoniyatlardan foydalanishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish katta iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi. –T.: “Universitet”, 2014.
2. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. 1991-2018

АГРОКЛАСТЕРЛАР ТАЛАБИГА МОС ҒЎЗА НАВЛАРИНИ ЯРАТИШ

С.И. Махсудов
ПСУЕАТИТИ Бухоро ИТС

Бутун дунё ишлабчиқаришида, жумладан қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришида ҳам инновациялар даври жадал давом қиляпти. Юртимизда ҳам қишлоқ хўжалик соҳасини ислох қилиш борасида катта ўзгаришлар қилинди. Эндиликда халқимиз ризқ насибасини етиштириб берувчи қишлоқ хўжалиги соҳаси агрокластерлар асосида ташкил қилинган. Мамлакатимизда ғалла (1

А. Жахонгиров Ғўзали майдонларга кузги ғалла уруғларини сифатли экиш учун инновацион технология	243
Н.Т. Норбоева Ғўзанинг ривожланишига ташқи абиотик омилларнинг таъсири	245
Б.Н. Абдуллаев, Ф.Х. Хошимов Ресурсосберегающей и почвозащитной технология возделывания кукуруза на поливе и значении сотрудничество	247
К.Ш. Бозоров, К.М. Мўминов Суғориш эрозиясига учраган ерларда тупроққа асосий ишлов бериш усуллари ва чуқурлигининг кузги буғдой дон ҳосилига таъсири	250
З.Р. Бобокулов Нўхат навларининг дон сифат кўрсаткичларига экиш муддатлари ва экиш чуқурлигининг таъсири	252
М.А. Болтаев, Б.М. Ибадуллаев Паст навли чигитдан совуқ усулда мой олиш ва уни рафинациялашнинг соддалаштирилган технологияси	254
М.Қ. Эшмуродова, Н.Д. Эшмуродова Суғориладиган бўз тупроқлардан унумли ойдаланишда ғўзани қўшқаторлаб экиш самарадорлиги	256
М.Ю. Ибрагимов, П.Х. Халмуратов, М.С. Жадигерова Қорақалпоғистон республикаси тупроқ шўрланиши шароитига мос помидор навларини танлаш.	260
М.Ю. Ибрагимов, П. Халмуратов, С.Е. Торениязова Қуйи амударё минтақасида картошка навларининг биологик хусусиятлари ва ҳосилдорлиги	262
Мирабдуллаев И.М. Рыбы вообще и рыбы узбекистана в частности	264
Н.Т. Нишонов Global g.a.p.-хавфсиз кишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришда замонавий стандартлар мажмуаси	267
Норбоев У.М. Законодательная база взаимоотношений субъектов рыночной экономики на основе производственного кластера	272
Нормуратов И.Т., Очилов М. Интродукция қилинган унаби (чилонжийда) ни кўчатини етиштиришнинг интенсив технологияси	274
Р.Х. Эргашев, У.Х. Беглаев Балиқчилик тизимида барқарор ривожлантиришни ташкил этиш ва бошқарув механизмини бозор тамойилларига мослаш йўллари	227
С.Б. Бўриев, Л.Т. Юлдошов, А.М. Қобилов Ряска (<i>lemna minor</i> L) ўсимлигини оқова сувларда кўпайтириш ва балиқларга озика сифатида қўллаш	279
С.Н. Хамраева, Ф. Ҳаққулов Пахтачиликда кооперация муносабатлари такомиллаштириш давр талаби	280
Ш.Ш. Файзиёва, М.Х. Собирова Мамлакатимизда агросаноатни ривожлантириш ва уни такомиллаштириш йўллари	282
С. Ҳайдаров, А. Санакулов Интенсив боғ учун она пайвандтаглар етиштиришда макро- ва микроўғитлардан фойдаланиш	284
Хайитов М., Машрабов М., Мустафоева О. Сабзавотчиликда ҳосилни оширишнинг муҳим омиллари	286
Хўжакулова Н.Р. Коврак ўсимлигининг дориворлик хусусияти ва иқтисодий самарадорлиги	289
Ҳасанов М.А., Эргашев И.Т. Картошканинг янги навлари	293
Цой М.П. Концепция продовольственной безопасности узбекистана – международная практика	295
О.Л. Мухамедов., D.D. Juraxujayev Oqdaryo tumanida oziq-ovqat sanoati rivojlanishida chorvachilikning tutgan o'rnini	298
С.И. Махсудов Агрокластерлар талабига мос ғўза навларини яратиш	300
О.Л. Мухамедов Озиқ-овқат саноати ривожланишида чорвачилик маҳсулотлари етиштиришнинг ўзига хос жиҳатлари (жиззах вилояти мисолида)	302
Q.D. Davronov, O'Z. Hayitova Epifitik bakterial jamoalarining harakatlantiruvchi omillari	304
G.G'. Chinboeva, Q.D. Davronov Importance of immobilized α -amylase from bacillus subtilis strains	307